




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

QASHQADARYO VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI.

AMALIY FANLAR VA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMKAFEDRASI

MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Yog'och o'ymakorlik sirlarini o'rganish .

Qarshi – 2015 yil

Mavzu : Yog'och o'ymakorlik sirlarini o'rganish

Reja:

I.Kirish

Yog'och o'ymakorligi san'ati tarixi.

II. Asosiy qism

1. Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'och turlari va uning o'zida xos xususiyatlari
2. Yog'och o'ymakorligida asboblari va uskunalar
3. Yog'och o'ymakorlik to'g'raqlarini tashkil etish
4. «S.T.D-120 M Yog'ochga ishlov beradigan stanokning tuzilishi va ishlashi» mavzu bo'yicha trening ishanmasi

III.Xulosa

I.Kirish

Yog'och o'ymakorligi san'ati tarixi

Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida xalq amaliy san'ati bo'lishi o'zbek milliy hunanarmadchilik, zardo'zlik, gilamchilik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik kabi turlari va shu sohada qozongan ustalarning xizmatlari intila borib, yo'qolib ketishi haqida edi. Ammo respublikamiz mustaqilikka erishgan birinchi kunidan boshlab bu sohadagi ishlarga e'tibor berilmoqda. Jumladan, respublikamiz maktabalari va maktabdan tashqari amaliy mashg'ulotlarda ham hozirgacha anchagina ishlar bajarilyapti.

Yog'och o'ymakorligi o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi bo'lib naqsh tasvirlanadi. Tasvir taxta yoki yog'och bumyumlarga chizib ishlanadi.

Asrlar davomida YEropa va Osiyo yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kelgan.

5-6 asrlardan yog'och o'ymakorligi namunalari Surxondaryo sohasidagi yumaloq tepa tubidan topilgan 1-1,5 ming yil muqaddam mazkur oyda o'ymakorlik ishlari bitganligi isbotlangan.

Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xeva, Shahrisabz, boshqa shaharlardagi arxeologiya topilmalardan aniqlanmoqda.

4-10 asrlarda O'rta Osiyo madaniyati o'sa boshladi. 9 asrda Samarqand mustaqil davlat bo'lgach, olimlar va faylasuflar yetishib chiqdi.

Ular Abu Ali ib Sino, Rujdaki, Firdavsiy, Beruniy va boshqalar. Ajoyib arxitektura yaratiladi. Masalan, Ismoil Somoniy maqbarasi. Madaniyat rivojlanishi yog'och katta o'rin tutadi. 13 asrda Chingizxon bosqichni tufayli madaniy hayot izdan chiqdi. 1219-1221 yillarda mug'ul hukmdorligi, Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Mavr shahridagi o'stin-ustun qilib tashlandi.

Yog'och o'ymakorligi bo'yicha O'zbekistonda buyuk ustalardan Olijon Qosimjonov 1952-19978, Sulaymon Xo'jayev 1946-1966, Maqsud Qosimov va boshqalar ajayib maktablar yaratgan.

Ma'lumki yog'och qurilish material bo'lib , u xalq xo'jaligining turli sohalarida keng ko'lamda ishlatiladi . Yog'och durodkorlikda ishlatiladigan asosiy material hisoblanadi .Undan qurilish va inshootlardan , vagonsozlik , kemasozlik , kimyo va ko'mir sanatida ,

faner, mebel, gugurit tayyorlashda va boshqa sohalarda foydalaniladi . Yog'och keng ko'lamda ishlatilishga sabab uning texnik xossalarining yuqoriligidir yog'och ishlash oson , vazni yengil puxtaligi yuqori issiq va elektrni yomon o'tkazadi kislata va ishqorlar ta'sirida tez yemirilmaydi . Ko'pchilik yog'ochlarning tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lib yaxshi pardoatlanadigan bo'ladi .Yog'ochning qatyiqligi puxtaligi va boshqa texnik xossalari metallarga turi yo'nalishida turlichadir.

Yog'och oson alangalanadi chizishga hashoratlarning yemirilishiga qarshilik ko'rsata olmaydi bundan tashqari yog'ochda ayrim nuqsonlar ham bo'lib bular yo'g'och sifatining pasayishiga olib keladi ma'lumki barcha turdagi yog'och taxta materiallar daraxtdan olinadi. Shuning uchun o'quvchilarga darxat turlarini va ulardan qanday maqsadlarda ishlatilishi haqida tushuncha berish maqsadga muvafiqdir . Har qanday o'sib turgan daraxt uch qismdan iborat . Bular ildiz tana va el shoxlardan iboratdir . Qalin o'rmonlarda o'sadigan daraxtlar tik o'sadi kam shox bo'lib ulardan sifatli xodalar olinadi taxta materiallar yuqori bo'ladi .

O'rmon chetlarda o'sadigan daraxt tanasi egri bo'lib o'sadi yakka tartibda yoki siyrak o'sgan daraxtlar past bo'yli bo'lib ulardan olinadigan xodalar ko'pincha tabiiy nuqsonlar bo'ladi shuning uchun o'rmonchilik xo'jaligida sifatli yog'och yetishtirish maqsadida daraxtlar qalin qilib ekiladi O'rmonlarda daraxtlarni yiqitib yog'och material tayyorlash bir qator ishlardan biridir. Bulaga daraxtlarni arralab yiqitish shoxlarni bitash yo'g'anligiga qarab o'lchab turlarga ajatish ishlari po'stlog'ini shilish sortlarga ajratish ishlari yoki temir yo'l bilan joylarga yuborish kiradi .Qurilishlarda ishlatiladigan yog'och yumoloq yog'och xoda va taxta materiallari bo'ladi. Xoda shoxlari kesilgan po'stlog'i tozalangan daraxt tanasi bir qismi xoda diametri uch qismining yo'g'onligiga qarab butun sonlarda o'lchanadi

II. Asosiy qism

1)Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan yog'och turlari va uning o'zida xos xususiyatlari

Shunga ko'ra xodalar uch qirraga bo'linadi ingichka xodalar diametri 13 sm gacha o'rtacha xodalar diametri 24 sm gacha yo'g'on xodalar diametri 25 sm va undan yo'g'on bo'ladi yo'g'on xodalar lentalar arralar disk arrali stanoklar yordamida tilib ulardan har xil taxta

hosil qilamiz tilish natijasida ko'p miqdordagi yog'och arr to'pon sifatida chiqib kesib isrof bo'ladi .

Xususan taralar uchun 6-8 mm qalinlikdagi taxtachalar tayyorlashda tilish arralash yordamida bajarilib ko'p yog'och isrof bo'ladi . Chop arrasi 6-7 mm li arralar bilan yupqa taxtalar tilishda isrofgarchilik 50 % gacha yetadi. Bu usul bilan qalinligi 0.8-1.2 mm bulgan yupqa va taralar uchun yuqqan taxtalar tayyorlanadi. Taxta metiriallarning o'lchamlari uch son bilan yoziladi. Masalan: 6.5x18x40 bu yozuvdan 6.5 taxtani uzunligi metir xisobidan 18 enini sm hisobidan 40 qalinligi mm xisobida ifoda etiladi. Demak mana shunde usullarda yog'och materiallar tayyorlanadi qurilish yo'liga utamiz qurilish xam uchta yo'l bilan olib boriladi tabiiy va suniy tuliq qurigach yog'ochlarga ishlov berishdan asosan ikki usuldan ya'na yo'lda asboblari bilan ishlov berish va stanoklardan foydalangan qoida ishlov berishdir ishlov berish deganda nimani va qanday ishlar tushiniladi. Masalan: biror buyum tayyorlash uchamga keltirib silliqlash kabi ishlardir qulda ishlov berayotganimizda bir ulchamga keltirish uchun duradgorlik arralaridan foydalanamiz. Duradgorlik o'quv ustaxonalariga ishlatiyyotgan arralar shakliga qarab ikki turga bulinadi bular 1. dast arralar 2. burch arralar dars arralari ikki qisimdan iborat burch arralarxam uz navbatida ikki qisimdan dast va pullattan iborat arralar qanday shakilga ega bulishdan qattiy nazar vazifasiga kura uch turga bulinadi 1. quruchi arralar 2. tikuvchi arralar 3. buralma yoki yoy arralar.

Bu arralar tikishlarning shakli bilan farq qiladi arralar yirik tishli va mayday tishli buladi arralar yordamida zagatofkani kesishdan reja chizig'idan 2-3 mm qochirib quyiladi arralar yordamida malum bir ulchamga keltirib bo'lingach duradgorlik randalari yordamida silliqlash tekshirish usullari bajariladi bu maqsadda turli xil randalardan tozalash silliqlash maqsadida ishlanadigan randalarga bulinadi bular sher xabil taxta randa chok randa konish randa start randa va boshqalardan iborat randalar kunda tig' va panadan iborat buladi faqatgina xar xil randalar kundasini uzinligi tig'ining enligi va ensizligi bilan bir-biridan farq qiladi.

2)Yog'och o'ymakorligida asboblari va uskunalari

Randani ishga sozlashdan tig'lar o'tmaslashib qolganda ularni kundadan chiqarib charxlanadi charxlashdan xosil bulgan qirovni tukish

va tig'ni kundaga qaytadan tug'ri urnatishdan iborattir charxlash vaqtida charx xamma vaqt oldinga qarab aylantiriladi.

Qulda ishlov berishda arralar randalar bilan bir qatorda uskanalardan foydalaniladi uskunalar yordamida turli xil buyumlar tayyorlanadi ularni qisimlarini kupincha tirnoq chiqorish yuli bilan birlashtirib bunda uyushtirish ishlari bajariladi duradgorlik parmaları va parmash moslamalaridan xam keng foydalaniladi bularga ya'ni parmash moslamalariga kalovat vintli direl shestirnali tirshatka va boshqalar kiradi ulardan xar xil uylar tikishlar ochishda foydalaniladi.

Yog'ochga ishlov berishda stanoklar yordamida ham foydalanish mumkin. Stanoklarda qo'lda bajarilgandan ko'ra tezroq va sifatliroq bajarish mumkin.

Yog'ochlarga ishlov berishda asosan quyidagi stanoklardan foydalaniladi. Yog'och ishlashda tokorlik stanoklari, bularga TP-120 va T,SD-120 tipidagi yog'ochga ishlov berish stanoklardan foydalaniladi.

Yog'och ishlash tokorlik stanoklari yordamida yog'och materillaridan har xil aylana sirtlariga ega bo'lgan detallar shakillar buyimlar va shunga uxshash buyumlar tayyorlaniladi.

Arralash stanoklaridan xam foydalaniladi menutiga 2000-3000 martagacha aylanadi randalash stanokida randalash qulda randalanadi.

Randalash stanogi quyidagi qismlarga bo'linadi. Elektrodvigatel orqali plita yo'naltirgichi lineyka oldingi plitani boshqarish qutisi stanokda randaning tig'lari elektr tig'i yordamida o'tkirlanadi.

Har bir o'quvchi sanitariya va gigiyena qoidalariga rioya qilgan holda amaliy mashg'ulotlarga o'zining maxsus ish kiyimlarini kiyib ishlash talab etiladi.

O'quvchilar vaqti-vaqti bilan grafik asosida navbatchilik qilinadi.

Mashg'ulotlar tanaffussiz o'tkazilganidan so'ng har bir o'quvchi o'z ish o'rnini tozalab asboblarni tartibga keltirib turish talab etiladi.

Bundan tashqari har bir stanokni yoki qo'li bilan ishlaydigan asboblarni ishlatayotganda o'ziga tegishli texnika xavfsizligini ta'minlash va rioya qilishi shart.

3)Yog'och o'ymakorlik to'garaklarini tashkil etish

Hozirgacha xalq amaliy san'at turlaridan yog'och o'ymakorlik bo'yicha maktablarda to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda.

To'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning yoshi qobiliyati va bilimini hisobga olib uch qismga bo'lib o'rgatiladi:

Kichik guruh (4-5 sinf) o'quvchilari;
O'rta guruh (6-7 sinf) o'quvchilari;
Katta guruh (8-9 sinf) o'quvchilari

Biz yillik ma'lumotlar uchun kichik guruhga 144 soat, o'rta guruhga 216 soat, katta guruhga 288 soat ajratiladi. To'garak mashg'ulotlari haftaga ikki yoki uch marta o'tkaziladi. To'garakda 12-15 tagacha o'quvchi qatnashadi. Kichik guruh uchun taxminiy o'quv tematik reja quyidagicha tuziladi:

№	Mashg'ulot mavzusi	Nazariy	Amaliy	Jami soat
1)	Yog'och o'ymakorlik va uning ahamiyati	1	1	2
2)	Texnika haqida xavfsizlik tushunchasi	1	1	2
3)	Naqsh va uning turlari	2	10	12
4)	Eng odiy xoshiyabog' namunalarni tartib raqam bo'yicha	2	48	50
5)	Yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan materiallar turlari	2		2
6)	Yog'och o'ymakorlik buyumlari uchun materiallar tanlash	1		1
7)	Duradgorlik haqida tushuncha	1	1	2
8)	Yog'ochlarni aralash, randalash	2	56	58

9)	Oddiy hoshiya naqsh namunalari bosqichlari bo'yicha o'yish va pardoqlash	16		
10)	Yil davomida bajarilgan ishlarga yakun yasash			
	Jami:	16	128	144

4) «S.T.D-120 M Yog'ochga ishlov beradigan stanokning tuzilishi va ishlashi» mavzu bo'yicha trening ishanmasi

- Darsning maqsadi:

1.Ta'limiy maqsad: o'quvchilarga STD-120 m stanogi haqida : turlari, qismlari haqida ma'lumot berish.

2.Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda stanokda tayyorlangan buyumlar orqali kasbga bo'lgan qiziqishini o'yg'otish, go'zallika havas shakllantirish.

3.Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarga duradgorlik kasbiga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirib borish.

4.Milliy mafkuraviy maqsad: STD-120m stanogida buyumlarni tayyorlash orqali milliy xalq hunarmandchiligi turlariga qiziqish o'yg'otish.

5.Kasb-hunarga yo'llovchi maqsad: o'quvchilarga TSD-120m stanogida buyumlar tayyorlash orqali milliy hunarmandchilik kasbiga yo'naltirish.

- Darsning jihozi: STD-120 M stanogi, kesuvchi va yunuvchi iskanalar yog'och g'ola material.

-Darsni o'tish usuli: Savol-javob, ko'rgazmalilik, amaliy mashg'ulot.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy davr;

a)Davomatni aniqlash.

b)O'quvchilarni mashg'ulotga tayyorgarligini bilish. s)O'quvchilarni mashg'ulotga ish kiyimlarida hozirlash.

II. Yangi mavzuning bayoni:

Kundalik turmushimizda slendr va konus shakldagi yunib ishlangan va yog'ochdan yasalgan, juva (xamir yoygich), chekich (nonpar), tuzdon, beshik detallari, krovat va darvozalarning gullarini ko'rsak hayratlanamiz, bunday buyumlar qanday stanokdan yasalgan ekan degan fikrga boramiz. O'shanday buyumlarni yog'ochga ishlov berish tokarlik stanogi STD-120 M bajaradi.


S -stanok.

T -tokarno.

D -derevyanniy.

120M-markasi.

Shunda barcha o'quvchilarni stanok oldiga jalb etib tanishtirish boshlanadi.




1. Asos
2. Elektr dvigatel
3. Stanina
4. Tasmali uzatmaning to'sig'i
5. Magnitli ishga tushirgich
6. Alohida yoritgich
7. Oldingi babka
8. Planshaybali shpendel
9. Tirgak
10. Keting babka
11. Shaffof himoya ekrani

Stanokga g'ola yog'ochning diametri o'rtasi topilib, oldingi va ketingi babkalar oralig'iga mahkamlanadi. Tirgak bilan yog'och orasida 2-3 mm masofa qoldirilib, tegib qolmasligiga ishonch hosil qilish uchun g'ola aylantirib

ko'riladi. Yog'ochni stanokda yo'nish va kesish ishlarni bajarishda ikki xil iskanadan foydalaniladi.

Xomaki yo'nish ishlarini yo'nuvchi iskana bajaradi. U nov shaklida bo'lib, reyer deb ataladi. Sirtlarni silliqqlash, qirqib tushurish ishlari qirquvchi iskana –mayzel deb ataluvchi iskanada bajariladi.



Yog'och ishlanadigan tokarlik stanogida mashg'ulot o'tkazishda har qaysi stanokda ikkitadan o'quvchi shug'ullanadi: Bir o'quvchi ishchi, ikkinchi o'quvchi esa nazoratchi vazifasini o'taydi. Nazoratchi o'quvchi ishchi o'quvchining ishiga aralashmaydi, stanokni ishga sozlashda unga yog'och

o'rnatish yoki tayyor buyumni olishda stanokni yurg'izish yoki to'xtatishda unga yordam bermaydi. Faqat ishchining harakatini kuzatib, hato va kamchiliklarini kuzatadi yoki undan ish o'rganadi.

Nazoratchi havfsizlik texnikasi qoidalari buzilgandagina yordam berishi mumkin. Bir o'quvchi ma'lum ishni bajarib yoki buyumni tayyorlab bo'lgach ular o'rin almashadilar.

Yog'ochga ishlov berish tokarlik stanogi STD-120 M stanogida ishlashda quyidagi havfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish lozim.

1.Yo'nish uchun bo'toqsiz va yorig'i bo'lmagan yog'och tanlash.

2.Ishlanadigan yog'ochni oldingi va ketingiV babkaga mahkam o'rnatish uning puxta30F o'rnatilganligini va tirgakga tegib A qolmasligini tekshirib ko'rish kerak. 3.Shpendel aylanib to'rgan vaqtda yog'ochni o'rnatmaslik, tirgakni vaqti vaqti bilan yog'ochga yaqinlashtirib borish, yog'ochni tirgaksiz yo'nmaslik va kesmaslik.

4.Stanokni to'xtamay turib ishlangan sirtini qo'l bilan tekshirmaslik. 5.Ish vaqtida himoya ko'z oynagi taqib yoki himoya ekranisiz ishlamaslik. 6.Ish o'rnini qo'l bilan tozalamaslik uni shutka bilan tozalash.

5.Ish vaqtida ximoya ko'z oynagi taqib olish yoki himoya ekranisiz ishlamaslik.

6.Ish o'rnini qo'l bilan tozalamaslik uni shutka bilan tozalash.

Ushbu kabi havfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinish bir o'quvchi mashg'ulotni jarohatsiz va muvofaqiyatli ado etadi.

Amaliy mashg'ulotda o'quvchilar mustaqil ravishda yog'ochni o'rnatadilar uni yo'nishni mashq qiladilar. Bajargan ishlariga qarab o'qituvchi ularni ishini baholab boradi.

III. Mustahkamlash.

- a) Stanok qanday qismlardan tuzilgan va uning ishlashini tushuntiring?
- b) Stanokda qanday yog'ochlar yaxshi va qulay ishlanadi?
- c) Stanokda ishlashda qanday havfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilish lozim?

IV. Ish o'rnini tozalash va tartibga keltirish. O'quvchilarning ish kiyimlarini va asboblarni navbatchi o'quvchidan qabul qilib olish.

III. Xulosa o'rinida shuni aytish joiz duradgor yoki ustaning ishi juda sifatli bo'ladi.

Bu hunar hisobandi. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek «Har bir farzandimiz hunarli bo'lishi shu hunarlari yordamida mustaqil O'zbekistonimizning rivojiga o'z hissasini qo'shishi lozim» deganlaridek bo'lsin.

Ayniqsa xalq amaliy san'ati o'quvchilarga yog'och o'ymakorlik bo'yicha chuqur bilimlar bermoqda. Tuman (shahar) XTBlarni qoshida shunday maxsus maktablar ochib o'quvchilarga puxta bermoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992 yil 8 dekabr.*
2. *B.I.Muranov «O'quvchi yoshlarning kasb tanlashlarida maktab va oilaning hamkorligi». Toshkent «Maktab va hayot», 2001 yil*
3. *A.R.Xo'jaboyev, B.I.Muranov «O'zbekiston Respublikasi maktablarida mehnat ta'limi Kontsepsiyasi». Toshkent O'MKHTRI 1997 yil.*
4. *B.I.Muranov «Mehnat ta'limi muammolari, xususiyatlari». «Qashqadaryo ziyokori, 2000 yil 10-soni.*
5. *E.A.Klimov, S.N.Chistyakov «Kasb tanlash-7-8» Toshkent – «O'qituvchi» 1989 yil.*
6. *DTSlari va o'quv dasturi. O'zbekiston RXTB*
7. *A.G.To'raxonova «Tikuvchilik texnologiyasi asoslari», T.: 2000 yil*
8. *«Maktab va hayot» ilmiy metodik jurnal, 2008 yil, may oyi*
9. *G.M.Poshshaxo'jayeva «Xizmat ko'rsatish mehnati», T.: 2008 yil*
10. *Mirzajonova D.M. Integral pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent. Fan. 2007 y. 163 b.*
11. *Musayev M.M. va b. Kompyuter tarmoqlarini yig'ish. Toshkent. «Ilm Ziy» 2009 y. 160 b.*